



BOLALARDA DIQQAT YETISHMOVCHILIGI MUAMMOLARINI PSIXOLOGIK TASNIFLASH

Otaqulov O`tkirbek Quvondiqovich



*Navoiy viloyati Navoiy Shahar 11-sonli ayrim fanlar chuqur o`rganiladigan
ixtisoslashtirilgan maktab psixologi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalar orasida keng tarqalgan diqqat yetishmovchiligi muammosi psixologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilinadi hamda uning asosiy ko`rinishlari va turlari tasniflanadi. Diqqat yetishmovchiligi buzilishining (DYB) kognitiv, emotsional va xulq-atvor darajadagi ifodalanishi, bolalarning yoshiga, individual xususiyatlariga hamda ijtimoiy muhit omillariga bog`liqligi yoritib beriladi. Shuningdek, bu muammoning aniqlanishi, tashxisi va oldini olishda psixologik yondashuvlarning ahamiyati ko`rsatilib, zamonaviy tashxis metodlari va korreksion ishlar uslublariga e`tibor qaratiladi. Maqola maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar bilan ishlaydigan psixologlar, pedagoglar hamda ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so`zlar: *diqqat yetishmovchiligi, bolalar psixologiyasi, psixologik tasniflash, DYB, kognitiv buzilish, xulq-atvor muammosi, psixodiagnostika, korreksion metodlar, psixoprofilaktika, emotsional rivojlanish.*

Odamga har bir daqiqada atrof-muhitdan juda ko`p narsa va hodisalar ta`sir etib turadi. Lekin odamga ta`sir etayotgan bu narsa va hodisalarning hammasi bir xil aniqlikda aks ettirilmaydi. Ulardan ayrimlari aniq yaqqol aks ettirilsa, boshqa birlari shunchaki juda xira aks ettiriladi, yoki umuman aks ettirilmaydi. Bu esa ana



shu odamga ta'sir etayotgan narsalarga diqqatning qay darajada qaratilishiga bog'liqdir. Demak, diqqatimiz qaratilgan narsa va hodisalar aniq va to'la aks ettiriladi. Diqqat tushunchasiga olimlar tomonidan bir qator ta'riflar keltirilganligini ta'kidlash mumkin. P.I. Ivanov tomonidan diqqat deb- ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir ob'yektga aktiv qaratilishga aytiladi. F.N. Dobrinin, N.V. Kuzmina, I.V. Straxov, M.V. Gamezo, N.F. Gonobolin va boshqalarning fikricha, diqqatning vujudga kelishi ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishini bildiradi, go'yoki ong doirasi bir muncha tig'izlanadi. E.B. Pirogovaning ta'kidlashicha, tomonidan diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqazo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va biror narsaga qaratilganligidir.

Diqqat shunday muhim jarayondirki, u odamning barcha faoliyatlarida albatta ishtirok qiladi. Eng soda faoliyatdan tortib eng murakkab faoliyatni ham diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoya kattadir. Jumladan, fransuz olimi Kyuve geniallikni chidamli diqqat deb ta'riflashi, Nyutonning kashfiyoti fikrni doimo shu masalaga qaratilish jarayoni, deyishidir. Diqqat psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ob'yekt ustida to'planishidan iborat bilish jarayonidir. Yo'naltirish deganda psixik faoliyatning tanlovchanlik tabiati, obyektini ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladi. O'quvchi maktabda o'qituvchi gapirayotgan gaplarni eshitib o'tirganda, mana shu eshitib o'tirish faoliyatini ongli ravishda tanlab olgan, uning diqqati ongli ravishda qo'zg'algan shu maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. Psixik faoliyatning yo'naltirilishi deganda ana shu tanlashgina tushunilib qolmay, balki ana shu tanlanganni saqlash va qo'llab-quvvatlash tushuniladi. Diqqatning bilish jarayoni uchun ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir. Diqqat sezish jarayonida, idrok qilishda, xotira, xayol va tafakkur jarayonlarida har doim ishtirok etadi. Diqqat barcha aks ettirish jarayonlarimizning doimiy yo'ldoshidir. Diqqat barcha psixik jarayonlarimizda



qatnashsa ham, lekin diqqatning o‘zi hech narsani aks ettirmaydi. Odamga har bir daqiqada ta’sir qilib turadigan qo‘zg‘atuvchilar turlicha reflekslarga sabab bo‘ladi.

20-yillarda bir qancha psixologlar diqqat muammosini ustanovka bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiladilar. Buning yaqqol isboti sifatida K.N. Komilov tahriri ostida 1926-yilda chop qilingan psixologiya darsligidagi bir mavzu “Ustanovka va diqqat” deb atalganligi bilan izohlash mumkin. Darslikda yozilishicha, qator ob’yektlardan bir ob’yektni ajratish diqqatning sub’yektiv kechinmasidir va buni ob’yektiv hodisalar bilan taqqoslash, sezgi organlarining ustanovkasidan, ishlash vaziyatidan iboratdir .

Bolalarda diqqat juda erta rivojlana boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko‘rinmasa ham, oradan sal o‘tmay, ya’ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyoriy diqqat alomatlari yaqqol ko‘rina boshlaydi. Ikki uch oylik bolalar esa, shaqir-shuqurga quloq soladigan (shaqildoqlarning tovushiga ovunadigan) bo‘la boshlaydilar. Bolaning ko‘z o‘ngidagi narsa qanchalik rang-barang bo‘lsa, bola unga shunchalik ko‘p e’tibor beradi. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqati nihoyatda beqaror bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, bolaga yangi o‘yinchoq bersangiz u o‘yinchoqni juda qiziqib ko‘ra boshlaydi. Lekin ayni shu paytda yana bir boshqa o‘yinchoqni ko‘rsatsangiz, birinchi o‘yinchoqni tashlab, ikkinchisiga talpinadi. Yasli yoshidagi bolalar diqqatining beqarorligi fiziologiya nuqtai nazaridan ularda hali tormozlanish protsesslarining kuchsizligi bilan bog‘liqdir. Tormozlanish jarayoni qo‘zg‘alish jarayonining keng yoyilib ketishini to‘xtata olmaydi. Ana shuning uchun kichik bolalarning diqqati bir narsadan ikkinchi narsaga chalg‘ib ketaveradi. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining g‘oyat beqaror bo‘lishi turmush tajribalarining juda ozligi bilan ham bog‘liqdir.

Bolalarga hamma narsa yangilik bo‘lib tuyulaverganidan ularning diqqatlari bir narsadan ikkinchi narsaga tez-tez chalg‘ib ketaveradi. Masalan, N.M.



Menchinskayaning hikoya qilishicha, Sasha (1 yosh 8 oylik) echki va uning bolalari haqidagi ertakni zo‘r qiziqish bilan tinglaydi. Bo‘ri kelib eshikni taqillatgani hikoya qilinganda, Sasha bo‘rining qanday taqillatganini ko‘rmoqchi bo‘lib, devorga tap-tap etib uradi, lekin ba‘zan taqillatishga shu qadar mahliyo bo‘lib ketadiki, ertakni tamomila unutib qo‘yadi. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini faqat ko‘zlariga yaqqol ko‘rinib turgan bir narsagagina qarata oladilar. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining rivojlanishida nutqning roli juda kattadir. Bolaning tili chiqib nutqni egallay boshlashi, katta kishilar bilan muloqotda bo‘lishdan tashqari, ularning ko‘rsatmalarini bajarish imkoniyatini ham beradi. Kattalarning iltimos va topshiriqlarini bajonidil ado etadilar, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga oid oddiy yumushlarni qiziqib bajaradilar, ota-onalarining uy-xo‘jalik ishlarida qarashishga harakat qiladilar. Mana shularning hammasi, diqqatni ma’lum darajada to‘plash va muayyan bir maqsadga qaratishni talab etadi. Bu esa bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga asos yaratadi.

Bog‘cha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq, kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida kun sayin paydo bo‘ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o‘yin faoliyatlarining xilma-xil bo‘la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi. Bog‘chada jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo‘ysunish, qoidali o‘yin shartlarini so‘zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado etish kabi hollar bog‘cha yoshdagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o‘yinning roli juda kattadir. Ana shunday o‘yinlarda ixtiyorsiz diqqat bilan birga ixtiyoriy diqqat ham faol ishtirok etadi, binobarin, bolalarning o‘yini uchun sharoit yaratib beradi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, ixtiyoriy diqqat iroda bilan bog‘liq, shuning uchun ham ko‘pincha bolalar diqqatning bu turini o‘zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Dastlabki paytlarda diqqatning ixtiyoriy turini har xil savollar va topshiriqlar berish yo‘li bilan rivojlantirib borish kerak. Bog‘cha



yoshidagi bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya'ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o'rta va katta guruh bolalarining) bir ish ustida uzoq vaqt davomida o'tira olishlaridan, ba'zi o'yinlarni zerikmay soatlab o'ynay olishlaridan, ta'limiy mashg'ulotlarda chidam bilan o'tira olishlaridan bilishimiz mumkin. Ayrim bolalar oilada tegishli nazorat ostida bo'lmasligi, yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborilganligi sababli o'zlarining xatti-harakatlari, hulq atvorlarini tartibga sololmaydilar. Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o'tira olmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga quloq solmaydigan bo'ladilar. Diqqatni boshqara bilmaslik, ya'ni ma'lum muddat davomida bir narsaga yo'naltira olmaslik, mashg'ulotlarda intizom buzish va boshqalarga xalaqit berishga olib keladi. Ana shuning uchun tarbiyachilar bunday bolalarga nisbatan individual munosabatda bo'lishlari (har xil mas'ulyatli topshiriqlar berish va hokazo), ularda diqqatning kuchini hamda barqarorlik xususiyatini tarbiyalab borishlari zarur. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo'lishga harakat qilsalar ham, ammo buning uddasidan chiqa olmaydilar. Masalan, 3 yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to'kib sohib olib keladi. Bu uning uquvsizligi, bo'shanligidan emas, balki o'z diqqatini ayni bir vaqtda ikkita narsaga bo'la olmasligidandir.

Bola o'zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to'kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo'la omaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi. Diqqat ko'lamining kengligi aniq idrok qilish bilan bog'liq bo'lgan xususiyatdir. Shuning uchun bolaning bog'cha yoshidagi davrida barcha imkoniyatlardan keng foydalanib, diqqatning bu xususiyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bunda asosan, ekskursiyalar, instsenirovkalar, har sohaga doir rasmlar bilan o'tkaziladigan suhbatlar katta rol o'ynaydi. Maktabdagi ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan ixtiyoriy diqqat bog'chada didaktik mashg'ulotlar, hikoyalar o'qib berish davomida rivojlantiriladi.



Diqqat xususiyatlarini o'rganishda parishonxotirlik haqidagi masala muhim ahamiyat kasb etadi. Parishonxotirlik deb, odatda, ikki turlicha hodisaga aytiladi. Birinchidan, ko'p hollarda parishonxotirlik deb, insonning atrofida qilargalarga e'tibor bermasdan, ishga haddan tashqari berilib ketishining natijasiga aytiladi. Parishonxotirlikning bu turi u yoki bu faoliyatda kuchli jamlanganlik natijasida yuzaga kelganligi sababli soxta parishonxotirlik deb ataladi. Parishonxotirlikning umuman boshqa bir turi inson diqqatini hech bir narsada uzoq vaqt jamlay olmagan vaziyatda, hech birida ushlanib qolmasdan, muntazam ravishda bir ob'yektdan ikkinchisiga yoki bir hodisadan ikkinchisiga o'tib turishida kuzatiladi. Parishonxotirlikning bu turi haqiqiy parishonxotirlik deb ataladi. Haqiqiy parishonxotirlikdan aziyat chekuvchi insonning ixtiyoriy diqqati o'ta beqarorligi va chalg'ib turishi bilan farqlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bolalarda diqqat go'daklik davridan rivojlana boshlaydi. Bolada diqqatning qanday rivojlanishi albatta u bilan shug'ullanishga bog'liq. Bolalar bilan shug'ullanish odatda onalar zimmasida boladi chunki, bola eng ko'p vaqtini onasi bilan o'tkazadi. Diqqatini rivojlantirish bilish jarayonlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Xaydarov, N.Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent, 2010. 114-bet.
2. Z.Nishonova, G.Alimova bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi Toshkent 2006. 53-bet.
- 3.<http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/10216/5.mavzu.diqqat.htm>